



UDK:159.9

Sanjarbek ISMAILOV,
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: sanjarbek.i@urdu.uz

Mamun universiteti dotsenti, ps.f.n B.Nurullayeva taqrizi asosida

UZBEK VERSION OF THE "PROCRASTINATION" QUESTIONNAIRE

Annotation

The article describes the stages of analysis carried out to adapt the Uzbek version of P. Steel's "Procrastination" questionnaire, which is used to diagnose procrastination. The structural and construct validity of the adapted questionnaire was examined.

Key words: Procrastination, activity, optimism, factor loading, structural validity, construct validity.

УЗБЕКСКАЯ ВЕРСИЯ ОПРОСНИКА «ПРОКРАСТИНАЦИЯ»

Аннотация

В статье описаны этапы анализа, проведенного для адаптации узбекской версии опросника П. Стила «Прокрастинация», используемого для диагностики прокрастинации. Проведена оценка структурной и конструктивной валидности адаптированного опросника.

Ключевые слова: прокрастинация, активность, оптимизм, факторная нагрузка, структурная валидность, конструктивная валидность.

“PROKRASTINATSIYA” SO‘ROVNOMASINING O‘ZBEKCHA SHAKLI

Annotatsiya

Mazkur maqolada P.Steelning prokrastinatsiyani diagnostika qilish uchun foydalaniladigan “Prokrastinatsiya” so‘rovnomasining o‘zbek tiliga tarjima qilingan shaklining moslashtirish uchun olib borilgan tahlil bosqichlari yoritilgan. Moslashtirilgan so‘rovnomaning strukturaviy va konstruktiv validligi tekshirilgan.

Kalit so‘zlar: Prokrastinatsiya, faollik, optimizm, faktor yuklama, strukturaviy validlik, konstruktiv validlik.

Kirish. Bugungi kunda vaqt masalasi juda muhim bo‘lgan masalalardan biridir. Har bir ishda ishni sifatli qilib bajarish bilan birgalikda uni qisqa vaqtda bajarish ham talab qilinadi. Vaqt omilining asosiy o‘ringa chiqishi belgilangan vazifa uchun ma‘lum bir muddat ajratilishiga sabab bo‘ladi. Muddat bo‘lgandan keyin esa uni kechiktirish holatlari ham uchrab turadi. Qilinishi kerak bo‘lgan ishni keyinga qoldirish barchada uchrab turadigan holatdir. Ushbu holat psixologiyada prokrastinatsiya deb ataladi. Prokrastinatsiyaning muntazam bo‘lishi bir qator salbiy oqibatlariga olib keladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Prokrastinatsiya hodisasini o‘rganish psixologiyada nisbatan kech boshlangan. Ammo qisqa muddat ichida prokrastinatsiya ko‘plab ishlar amalga oshirilgan.

Prokrastinatsiya keraksiz ravishda nimanidir salbiy oqibatlari anglagan holda keyinga qoldirishdir [10]. Prokrastinatsiyaning barchasi keyinga qoldirishdir, ammo barcha keyinga qoldirish ham prokrastinatsiya emas [2]. Prokrastinatsiya ishni boshlashda emas, ishni yakunlashda ham sodir bo‘lishi mumkin [3]. Prokrastinatsiya bu aynan dangasalik emas. Ularning orasida farq bor. Dangasa inson hech nimani qilishni hohlamasligi mumkin, ammo prokrastinator nimanidir qilishni hohlaydi, lekin uni keyinga qoldiradi[6].

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, prokrastinatsiya eng ko‘p talabalarda uchrab ekan. [4]

Prokrastinatsiya - ixtiyoriy ravishda, ongli, salbiy oqibatlarni bilgan holda kerakli va muhim ishni sababsiz keyinga qoldirishdir. [7].

Prokrastinatsiya bir qator salbiy oqibatlariga olib keladi. Bular: talabalarda baholarning tushib ketishi, o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishi, yurak kasalliklariga

moyillikning oshishi, imun tizimini zaiflashtiradi, uyqusizlikka sabab bo‘lishi mumkin.[9]

Prokrastinatsiyani oldini olishda bir qator tavsiyalar beriladi. Bular: realistik maqsad qo‘yish, masalani qilsa bo‘ladigan qismlarga ajratish, vaqtni to‘g‘ri raqsimlash, muammoli masalalarni hal qilish. [8]

Tadqiqot metodologiyasi. So‘rovnomanini moslashtirishda so‘rovnoma va ma‘lumotlarni qayta ishlash metodidan foydalanildi. Ma‘lumotlarni qayta ishlash uchun SPSS dasturidan foydalanildi. Dastur yordamida ma‘lumotlarni qayta ishlash uchun tavsiflovchi statistika, faktorli tahlil, Pirson korrelyatsion mezonini, ishonchlilikni aniqlash mezonlaridan foydalanildi.

Sinaluvchilarning barchasi uchun umumiy metodika bu “Prokrastinatsiya” so‘rovnomasi. Ammo bog‘liqlikni tekshirishda foydalanilgan boshqa metodikalar uch guruhda o‘tkazildi. Ya‘ni barcha sinaluvchilar ham ularni ishlamadilar. Konstruktiv validlikni tekshirish uchun ulardan foydalanildi. So‘rovnoma qayta ingliz tiliga tarjima qilish bosqichidan o‘tkazilmadi.


P.Steelning “Prokrastinatsiya” testi, uning 2010 yilda e‘lon qilgan “Arousal, avoident and decisional procrastinators: Do they exist?” nomli maqolasi asosida yaratilgan[5]. P.Steel prokrastinatsiya bo‘yicha bir nechta testlarni sinab ko‘rib yaroqli savollarni ajratib olgan. Metodika 12 savoldan tashkil topgan.

Har bir savolga sinaluvchilar 1 dan 5 gacha bo‘lgan ballar tizimida javob beradilar. Bunda 1-to‘liq qo‘shilmayman; 2-qo‘shilmayman; 3-bilmayman; 4-qo‘shilaman; 5-to‘liq qo‘shilmayman.

Faollik va optimizmi baholash uchun “Shaxsning optimizmi va faolligini o‘rganish” metodikasidan foydalanildi. [1]

Tadqiqot sinaluvchilari haqida ma'lumot. Tadqiqot sinaluvchilari Abu Rayhon Beruniy nomli Urganch davlat universiteti talabalari. Tadqiqotda jami 236 nafar sinaluvchi qatnashdi. Shundan 80 nafari erkak va 156 nafari ayol

sinaluvchilar. Tadqiqotda 17 yoshdan 44 yoshgacha bo'lgan sinaluvchilar qatnashdi(1-rasm). Yosh bo'yicha moda 18, mediana 20.



1-rasm. Sinaluvchilarning yosh ko'rsatkichlari

Metodikaning strukturaviy validligi. Metodika jami 12 savoldan tashkil topgan bo'lib, savollarning barchasi bitta ko'rsatkichni, prokrastinatsiyani aniqlashga xizmat qiladi. Strukturaviy validlikni tekshirish uchun dastlab Explorator faktor tahlil o'tkazildi. Faktor tahlilda "Minimum residuals" metodidan, rotatsiya "Oblimin" dan foydalanildi. Faktorlar "Eigenvalue" ga asoslangan holda ajratildi. 6-savol faktor yuklamasi 0.3 dan past bo'lganligi sababli chiqarib tashlandi.(1-jadval)

1-jadval.

Savollarning faktor yuklamalari tahlili

Faktorli tahlildan so'ng confirmator tahlil o'tkazildi. Olingan natijalarning barchasi metodika yaroqliligini ko'rsatmoqda. Faqatgina SRMR 0.05 dan sal kattaroq. Ammo bu ham qabul qilsa bo'ladigan ko'rsatkich.

RMSEA≤0.049, SRMR≤0.065, CFI≥0.975, TLI≥0.969. CMIN(x2/df)=1.56.

Konfirmator tahlildan so'ng, metodika savollarining diskriminativlik darajasi tekshirildi. Diskriminativlik ko'rsatkichlari

№	Savollar	Faktor yuklamalar (shkalalar)
		F1
1	Juda kech va orqaga surib qaror qabul qilaman.	0.470
2	Qaror qabul qilgan bo'lsam ham, amal qilishni kechiktiraman.	0.533
3	Yakuniy qarorga kelishdan oldin ahamiyatsiz narsalarga ko'p vaqt sarflayman.	0.357
4	Ishni tayyorlash muddati belgilansada, boshqa narsalarga vaqt sarflayman.	0.452
5	Ozgina harakat talab qiladigan narsalarni ham, kamdan kam hollardan o'z vaqtida bajaraman.	0.339
7	Doimo ishni "ertaga bajaraman" deyman.	0.665
8	Qilishim shart bo'lgan ishni boshlamasdan orqaga suraman.	0.630
9	Doimo vaqtim tugab qolgan bo'ladi.	0.431
10	Men ishlarni o'z vaqtida bajarmayman.	0.461
11	Men muddatlarga rioya qilmayman.	0.440
12	Ishlarni orqaga surishim avval ham qimmatga tushgan.	0.330

eng kichiki 0.291 dan eng kattasi 0.558 gacha bo'lgan ko'rsatkichni ko'rsatdi. Barcha savollar bo'yicha diskriminativlik ko'rsatkichi minimal balldan yuqori ko'rsatkichni ko'rsatdi.(2-jadval)

2-jadval.

Savollarning diskriminativlik darajalari

	Savollar diskriminativligi	Alfa kronbah
1-savol	0.406	0.746
2-savol	0.448	
3-savol	0.309	
4-savol	0.410	
5-savol	0.295	
6-savol	0.558	

7-savol	0.530
8-savol	0.358
9-savol	0.381
10-savol	0.375
11-savol	0.291

Diskriminativlik darajasi juda yaxshi ko'rsatkichni ko'rsatdi. Savollarning sinaluvchilarni ajratib berish ko'rsatkichi yuqori.

Savollarning ishonchlik darajasi ham o'rganildi. Bunda Alfa kronbah ko'rsatkichi 0.746 ni ko'rsatdi (2-jadval). Bu degani metodika savollari, alohida sinaluvchini tekshirish uchun ham, ilmiy tadqiqot o'tkazish uchun ham yaroqli degani.

Standartlashtirish va diagnostik normalarni ishlab chiqish. Dastlab Kolmogorov-Smirnov mezoni yodamida

3-jadval.

Assimetriya va Eksses. Kolmogorov-Smirnov ko'rsatkichi.

Tashxis shkalasi	M	SD	Assimetriya/Standart xato	Eksess/Standart xato	Kolmogorov-Smirnov
Prokrastinatsiya	49,55	9,36	0.382/0.158	0.595/0.315	1.432/ 0,05*

Konstruktiv validlik. Prokrastinatsiya konstruktiv validlikni tekshirish uchun "Shaxsning optimizmi va faolligi"ni aniqlash metodikasi bilan korrelyatsion aloqasi o'rganildi. (4-jadval)

Olingan natijalarga ko'ra, prokrastinatsiya va optimizm shkalalari orasida manfiy korrelyatsion aloqalar 4-jadval.

Metodika shkalalari orasida korrelyatsion aloqalar

	Prokrastinatsiya
Faollik shkalasi	0.034
Optimizm shkalasi	-0.245*

Xulosa. Metodikani yaratishda dastlab faktorli tahlil o'tkazildi. Bunda bitta savol ko'rsatkichi qoniqarsiz bo'lgani uchun chiqarib tashlandi. Ikkinchi bosqichda metodikaning strukturaviy validligi tekshirildi. Strukturaviy validlik natijalari qoniqarli chiqqanda so'ng metodikaning konstruktiv validligi tekshirildi.

Metodikani moslashtirishda savollarning umumiy shkala bilan korrelyatsiya ko'rsatkichi aniqlanmadi. Buning sababi shundaki, metodikani yaratgan muallif metodikani yaratishda umumiy ko'rsatkich bilan savollarning korrelyatsion aloqadorligini o'lchamagan.

metodikalarning normal taqsimlanish qonuniga mosligi tekshirildi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, "Prokrastinatsiya" metodikasi bo'yicha olingan natijalar normal taqsimlanish qonuniga mos kelmadi ($Z=1,432$; $p\leq 0.05$). Olingan natijalarga ko'ra o'rtacha qiymat - 26.97, standart og'ish -7.35ni tashkil qildi. o'rtacha qiymat va standart og'ish ko'rsatkichlaridan kelib chiqib metodika uchun normani belgilaydigan bo'lsak, norma 19 balldan 34 gacha bo'lgan qiymatlarni tashkil qildi. Assimetriya (0.382) va Eksess(0.595) balni tashkil qildi. Assimetriya va eksess ko'rsatkichlari normada (3-jadval)

aniqlandi ($r= -0.245$; $p\leq 0.05$). (4-jadval). Optimist bo'lish prokrastinatsiyani kamaytirar ekan.

Prokrastinatsiya va faollik shkalalari orasida esa korrelyatsion aloqalar aniqlanmadi ($r= 0.034$; $p\leq 0.05$)(4-jadval). Prokrastinatsiya darajasi shaxs faollik darajasiga bog'liq emas ekan.

Metodika savollarning ayrimlari qoniqarli darajada yaroqlilikni ko'rsatdi. Shu sababdan, kelajakda boshqa bir tarjima so'rovnoma yaratilishi yoki prokrastinatsiyani aniqlashda yangi so'rovnoma ishlab chiqilishi tavsiya qilinadi.

Metodika ko'rsatkichlari eng kamida qoniqarli darajada testni moslashtirish talablariga javob berdi. Tadqiqot davomida P.Steelning prokrastinatsiyani aniqlash bo'yicha 11 savolli so'rovnoma ishlab chiqildi.

ADABIYOTLAR

1. Karamyan M.X., B.B.Nurullayeva, E.V.Bondareva, M.X.Djumaniyazova, F.E.g'aziyeva "Eksperimental psixologiya".METODIST NASHRIYOTI". Toshkent. 2024.
2. Michael Tefula "Student procrastination". Red Globe Press. UK. 2014.
3. Schouvenburg, Genri "Counceling procrastinators in academic settings". Washington, DC: American Psychological Association. 2004
4. Steel P. "Nature of procrastination"//Psychological Bulletin. January 2007. 133(1):6594
5. Stee P.; "Arousal, avoidant and decisional procrastinators: Do they exist?"// Personality and Individual Differences. 2010
6. Ismailov S. "Prokrastinatsiya va dangasalik psixologik muammo sifatida"// JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH.2023
7. Ismailov S. "Prokrastinatsiya hodisasini o'rganishning ayrim dolzarb masalalari"//Sciencebox.uz. 28.12.2024. Vol.22

8. Solvingprocrastination.com
9. Procrastinus.com
10. Wikipediya.